

# Haruki Murakamining “Shamol Qo‘shig‘ini Tingla” Romanining Konseptologik Tahlili

*Jalolova Laylo Shavkatovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yapon adibi Haruki Murakamining adabiyotida o‘ziga xos strategik uslub va tasavvurlari haqida ma’lumot berilgan. Yozuvchining “Shamol qo‘shig‘ini tingla” nomli romanida aks etgan realizm, transmadaniy qarashlar ostida shakllangan voqeliklar konseptual yoritildi. Qahramonlar karakteristikasi orqali insoniy qadriyatlar, axloq, ijtimoiy hayot, san’at va tabiatga oid umubashariy tuyg‘ular tasvirlari badiiy ifodalangan. Haruki Murakamining har bir asarida takrorlanuvchi bo‘shliq, yolg‘izlik, sadoqat kabi konseptlar mazkur romanida ham uchrab ular bilan bog‘liq chuqur falsafiy utopik jihatlar tahlil qilindi. Romandagi “shamol” inson dunyosidagi distopik voqelik “o‘lim” va boshqa mavhum syujetlar tasvirida asosiy o‘rin tutgan.

**Kalit so‘zlar:** konsept, utopiya, transmilliy, transmadaniy, asar strukturasi, shamol, o‘lim, yolg‘izlik, bo‘shliq, postmodernizm .

## KIRISH

Adabiyotshunoslikda asarlardagi g‘oyaviy qarashlarni kongnitiv anglash va unga bog‘liq maxsus ma’noviy qismlarni anglashda konseptlar asosiy o‘rin tutadi. V.A.Maslova konseptga ta’rif bergan: “bu lingvomadaniy o‘ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniy egalarining u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir”[5]. Konseptlar badiiy asarni tushunish jarayonida borliqdagi aniq va mavhum tushunchalarni ifodalab berib, ma’noviy sathlarni belgilab beradi. Eng avvalo, milliylik konseptosferasini, adib dunyoqarashi ayni damdagi ijtimoiy ahvolni, inson psixologizmiga yaqin bo‘lgan tuyg‘ularni yoritib beradi. Yapon mashhur yozuvchisi Haruki Murakami ijodida ushbu holat yaqqol seziladi, o‘z asarlarining kompozitsiyasi va syujetida mavhum tushunchalarni butun boshli asar ma’nosiga aylantiradi va asarlar syujeti boshqa olam bilan birlashadi. Asarlarida asosiy qahramon va hayotni ta’riflovchi: yolg‘izlik, bo‘shliq, sukunat, o‘lim kabi tushkun birliklar aks etgan bo‘lsa ham asar mazmunga boyligi hamda kuchli realizmga asoslanishi bilan noyobdir. Haruki Murakamining “Shamol qo‘shig‘ini tingla” nomli romani ham yuqoridagi asoslarni umumiy lashtirgan.

## METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mashhur adib o‘z asarlarida yangicha zamoni turfa xil talqin etgan Haruki Murakami ijodiyotini ko‘plab izlanuvchilar o‘rgangan. Sarah Anna Juen “Transculturality in the Publications of Murakami Xaruki” [3] nomli tadqiqotida madaniy va transmadaniylikning Murakami asarlarida uchrashini talqin etgan. O‘zbek tadqiqotchilaridan X.Davronning “Nobel Mukofoti va Murakami haqida”, A.Otaboyevning “Murakamining G‘aroyib Matni” [7] nomli maqolalarida yozuvchining ijod yo‘li va asarlaridagi falsafiy ruh tahlil qilingan.

“Shamol qo‘shig‘ini tingla” nomli roman Haruki Murakamining ilk romani hisoblanadi, u beysbol tomosha qilib o‘tirganida asar yozish g‘oyasi paydo bo‘ladi va ushbu voqelikni aynan ilk romanida ham yozgan. Haruki Murakamining asarlarida g‘arbiylik, zamonaviylik ufurib tursa – da, insoniy kechinmalar ulug‘langan. Adabiyotshunoslar tomonidan Murakamining ijodi postmodernizm deb belgilangan, postmodernizmning asosiy xususiyati uning o‘tmishga, tarixga folklorga va mumtoz adabiyotga beparvo munosabatidir [1]. “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romanida hayot uchun kurashayotgan shaxs yo‘q, romandagi voqealar o‘n to‘qqiz kun davomida yuz beradi, bosh qahramon va uning Kalamush nomli do‘sti doim Jeynning pivo barida suhbatlashib o‘tirishadi. Ular ba’zan sayr

<sup>1</sup>Samarqand Davlat Chet tillar institutining 3- bosqich talabasi



qilishadi va bosh qahramon yana uyiga qaytib har doim musiqa eshitib shiftga termulib yotadi, yana pivo bariga borib do'sti bilan pivoxo'rlik qilishadi. Asar syujetida faol obraz uchramaydi, asosan personajlar o'tirib yoki to'shakda yotgan holda turli mavzularda ayniqsa san'at, musiqa, adabiyot, hayvonot haqida gaplashishadi. Romanning oxirlarida tanishgan to'rt barmoqli qiz g'oyib bo'ladi hamda bosh qahramon shaharga o'qishga qaytadi. Voqealar yozgi ta'tilda ro'y beradi. "Shamol qo'shig'ini tingla" asar nomi Trumen Kapotning "Shut a final door" ya'ni "So'nggi eshikni yoping" hikoyasining so'nggi so'zlari edi: "hech narsa haqida o'ylamang shamolni o'ylang" [9]. Haruki Murakamining "Shamol qo'shig'ini tingla" romani "Kalamush trilogiyasining" birinchi qismi hisoblanadi. Roman o'zining struktur jihatdan tuzulishiga ega, bir voqea boshlanib uning davomi bir yoki ikki kichik voqelikda keyin davom etgan. Hech bir voqelik boshdan oyoq uzluksiz yozilmagan. Yoshlarning hayoti ular kundalik hayotlarini qay tarzda o'tkazishi tasvirlangan. Bosh qahramon o'z daftariga chiziq tortib uning o'ng tomoniga erishgan, chap tomoniga erisholmagan narsalarini yozadi. Chiziqning ma'nosi narigi dunyo va bu dunyo orasini ajratib turuvchi omildir. Romanda bosh qahramonning do'sti Kalamush deb atalishida ramziy ma'nolik bor. Yaponiya, Misr, Hindiston davlatlarida kalamush o'lim ramzi hisoblanadi, Kalamush laqabli yigit bilan do'stlashgan qahramon o'zi uchun "u dunyo eshigini ochadi" [4]. Murakami adabiyotda zamonaviy unsurlarni tasvirlashda bebaho bo'lgan, turli mashhur rok qo'shiqchilari, g'arb adabiyoti kitoblarining asarda tez tez tilga olinganligi sabab Murakami ijodiga nisbatan "transmadaniylik" jumlasini ishlatiladi. Murakami qahramonlari umumiy xususiyatga ega, ular tez-tez tashqi dunyo bilan aloqa qila olmaydi va o'zlarining yolg'iz dunyolarida yashashni afzal ko'rishadi [2]. "Kaze no uta o kike" romanidagi hayotiy qadriyat psixiatr, pivo va raison d'etre dir(hayot mazmuni). Shu bilan birga ma'naviy qadriyat haqiqat qiymati(omadni pulga sotib bo'lmaydi, inson o'ladi) go'zallik qadriyati(chiroyli shanba oqshomi, go'zal qo'shiq), axloqiy qadriyat(boshqalarni kechirish, yaxshilikni qaytarish), diniy qadriyat (xalq o'ladi, Jannat) kabi qadriyatlar ijtimoiy dunyoqarash bilan tasvirlangan. Romanda buddizmga doir ruhiy falsafa mavjud, buddizmda butun borliq ruhiy to'xtovsiz rivojlanishdan iborat shuningdek, asarda insonning psixologik o'sishi etaplari mavjud. Boshqa dinlarga tegishli detallar ushbu asarda uchraydi, bosh qahramonning do'sti Kalamush barda "Isoning so'nggi vasvasasi" kitobini o'qishi, bosh qahramon va u uchratgan qizning tug'ilgan oyi "tog' echkisi ekanligi va Isoning tog' echkisi oyida tavallud topganligini eslashi orqali boshqa dinlarga ham ishora bildirgan. Jannat va do'zax ta'rifi asarda uchrab oshxonaning issiqligi do'zaxga o'xshatilgan:

“Одамлар айтишади. У ер миянг қайнайдиган даражада қизиб кетганда сени салқинроқ жойга ўтказишади. Сал четроққа чиқасан - кейин яна жазирамага” [8;34].

Do'zax ahlini jannat devorini oqlashi uchun yuborilishi, jannat devorining kir bo'lishi o'sha yerda ham tartibsizlik bo'lishini tasvirlagan:

“Жаннатга жўнатишади. Девор оқлашга. Жаннатда, ахир, деворлар оппоқ бўлиши керак - да. Сал пал доғ тегсаям, тамом, тартибсизлик. Бу, ахир, жаннат! Шунинг учун ҳам улар эрталабдан кечгача кекирдагидан ўпкасигача чириб, девор оқлашади” [8;34].

Havoning issiqligi ham do'zaxga qiyoslangan. Romanda hayvonlar ham majoziy ma'no anglatgan, bosh qahramonning yoshligida tabibga borganligi echki va quyon hikoyasi, it va otlarning kulishi, mushuk, fil kabilar, fil obrazi bosh qahramonning ijodi yoki omadiga ishoradir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Murakamining birinchi romani "Shamol qo'shig'ini tingla" romanini, undan keyin "Pinbol" va "Qo'y ovi" kabi romanlari yozilgan, ushbu romanlari "Kalamush trilogiyasi" nomi ostida birlashtirilgan. Haruki Murakami uchchala romanda ham bar borligi, noma'lum qahramon va uning do'sti Kalamush epizodlari uchrashini aytadi. Haruki Murakamining "Shamol qo'shig'ini tingla" romani umumiy jihatdan umuman shamol tavsifiga bag'ishlanmagan, biroq asarda turli musiqalar nomi keltirilgan. "Shamol" tavsifi romanning bir nechta o'rinlarida tilga olingan. Bosh qahramonning shamol haqida biror nima yozish istagi borligi, zovurda shamolni eshitganligi; quduq hikoyasida yigit va shamol suhbatlashishi, shamol unga quyoshning so'nishini va hamma o'lishini aytishi: "Бизда тугилиши ҳам ўлим ҳам йуқ. Фақат шамол бор" [8;48] shamol yoz tugashini shivirlab eslatishi; bosh



qahramonning uchinchi mashuqasi daraxtga o‘zini osib nobud qilgani va jasadni ancha vaqt shamol daraxtda tebratib turganligi tasvirlarda aynan shamol ishtiroki go‘yo salbiy va ijobiy voqelikni qo‘shiq qilib bosh qahramonga eslatgan. Murakamining ijodida narigi dunyo hodisalari jannat va do‘zax timsoli gapiriladi, real dunyodagi xotiralari, bu ikki dunyodan tashqari kosmik dunyo Marsdagi quduqlar haqidagi hikoyalari turli dunyoviy qarashlarga ega. Romanda Xartfild ismli yozuvchi bo‘lib, bosh qahramon Xartfildning asarlari nomini keltirgan ayan Marsdagi quduqlar hikoyasining muallifi Xartfild deb keltirgan. Aslida Xartfild ismli yozuvchi real hayotda yo‘q bu obraz orqali Kurt Vonnegut yoki Robert Howard kabi ijodkorlar nazarda tutilgan degan taxminlar bor [2]. Murakamining ijodini rus olimi Dmitriy Kovalenin o‘rgangan: “Uning asarlari shuday chiroyli uslubda yozilganki, xatto g‘ayritabiiy voqealar, uzuq-yuluq dialoglar ham syujetga uzukka ko‘z qo‘ygandek mos tushadi. Asar tili shunchalik, ularni soatlab o‘qisangiz ham charchamaysiz” [4]. Murakamining asarlari syujetlar ikkinchi o‘ringa tushib, birinchi o‘rinda estetik zavq ustunlik qiladi. “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romanida metropoliten tasviri, mashina markalari, kiyimlar, kino olami, jazz ijodkorlari ko‘p tilga olinadi. Rus ijodkori M.Nemtsov “Katta shahardagi inson tanazzulini avvalgi yozuvchilar qo‘llagan uslubda tasvirlay bo‘lmay qoldi. Ularning tili bugun biz guvoh bo‘layotgan holatlarni izohlashga ojizlik qiladi” [6] – deydi. Murakami ushbu romanida “yolg‘izlik”ka ham urg‘u beradi, asardagi bosh qahramon uyida yolg‘iz qolishi va o‘zini yolg‘iz qolganligini ham asarda keltirgan. Shamol qo‘shig‘ini tingla” romani “Mukammal matn yo‘q narsa...” deb boshlangan bo‘lsa –da, adib asarni mukammal tarzda tasvirlashga erishadi. Amerikalik rassom Charlz Shuls ushbu asar qahramonlarini mashhur to‘qima obraz Snupi laqabli itga qiyoslaydi, Snupining hayotdagi shiori “sen menga tegma, men senga tegmayman”, Murakamining qahramonlari ham hayotda beg‘am ko‘rsatilgan. Ushbu jarayonni Nemtsov: “Bunga sabab zamonaviy shahar muhitida “jonli hayot” haddan tashqari torayganida, axborot oqimi esa cheksiz kengayganida” deb baholaydi. Romandagi uchinchi qiz deb ta’riflangan qiz “Pinbol” va “Norvegiya o‘rmonlari” romanidagi Naokaning qahramoni bo‘lishi mumkin degan taxminlar mavjud. Uchinchi qiz bosh qahramonni “raison de’tre”(hayot mazmuni” deb ataydi va qizning vafot etishini, bosh qahramon har bir harakat va voqea necha marta sodir bo‘lganligini sanash odat tusiga kirganligi va bu odatdan mahrum bo‘lganligini: “*Шу күйи мен ўзимнинг raison d’etremни кўздан қочирдим ва бутунлай ёлғиз қолдим*” [8;37] deb ta’riflaydi. Ya’ni raison de’tre deganda aynan o‘sha uchinchi qizni va hayot mazmuni nazarda tutgan. Murakamining asarlari yoshlar orasida mashhur bo‘lishi aynan ularda sevgi, zamonaviy dunyoning rivoji realizmga singishi sababdir. Har bir asar yozuvchining kechimalaridan olinadi. Murakamining asarlarida bar va jazz tasvirining borligi, muallifning shaxsiy hayotda jazz-bari borligini bilish asardagi voqeliklarga o‘xshashi, Murakamining tabiatiga xoslikni uchratish kitobxonni qahramonlar real hayotda borligi voqeliklar sodir bo‘lganligi ikkilantiradi.

## XULOSA

Haruki Murakamining asarlarida uzviy bog‘liqlik mavjud uning qaysi asarini o‘qimang unda oldingisi bilan bog‘liq nimadir uchraydi. Buni aynan bog‘liqlik deb bo‘lmaydi balki, ma’lum bir qat’iy struktur qolipga ega deyish mumkin. “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romanida hayvonlar ko‘p tilga olingan hamda hayvonlar badiiy adabiyoti uchun kalit ekanligihaqidagi tushunchaga yopishib olgandek tuyuladi. Ayniqsa, Murakamining asarlarida eng ko‘p uchraydigani mushukdir, xuddi shu mushuk obrazi “Soat qushi yilnomasi” da ham uchraydi. “Sohildagi kafka” asarida mushuk telepatik harakterga ega [10]. Hayvonlar Murakami asarlarining sarlavhalarida ham uchraydi: “Qo‘y ovi” kabi, mazkur asar trilogiya tarkibida bo‘lsa ham “Raqs, raqs, raqs” asari uning davomi sifatida qaraladi.

Haruki Murakamining ijodi keng sathlarni oshkor etadi, realizm, postrealizm, surrealizmning asarlarda aks etishi. “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romanida quduq bilan bog‘liq hikoyada utopik jihatlar yuzaga kelgan, shuningdek, sahrodagi bir qiz bilan bo‘lgan sayr utopik jihatarga ega. Mazkur asarda o‘lim, bo‘shliq, yolg‘izlikka oid tushunchalar distopik tamoyillarni ochib beradi. Romanda hayotning bo‘m – bo‘sh deb tasvirlanishi hayotning mazmunsizligini unda inson faqat va faqat yolg‘iz yashashligiga oxiri esa o‘lim borligi haqidagi nutqlar uchraydi, shu kabi tasviriy distopik holatni yuzaga keltiradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Kurbonova, Gulnoza, & Borankulova, Samal (2022). 平安時代の子女教育・教養論の研究. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 ( Special Issue 24), 85-95.
2. Курбонова, Г. (2021). Сравнительный анализ узбекских и японских народных сказок (На примере сказок «Золотой арбуз» и 『雀報恩の事』 – «О благодарности воробья»). *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80), 62–66.
3. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/foreign\\_philology/article/view/1784](https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1784)
4. Adabiyotda Postmodernizm nima? XX asr oxiridagi postmodernizm adabiyoti. <https://www.gigafox.ru>
5. Jean. M.S. Who is Derek Hartfield. 2022. <https://www.jeanmichelserres.com>
6. Juen.S.A. Transculturality in the Publications of Murakami Haruki // *Vienna Journal of East Asian Studies*. DOI: 10.2478/vjeas-2017-0003.
7. Коваленин. Дмитрий. Суси-нуар. Занимательное муракамиидение. От потери к потере. Монография, 2004. <https://www.susi.ru>
8. Масалова В.А. Лингвокультурология: учеб. Пособие. М.: Академия, 2001.208 с.
9. Немцов. М. Блюз простого человека Занавес// <https://www.susi.runemtsov>
10. Otaboyev. A. Murakamining G‘aroyib Matni & Xurshid Davron. Nobel Mukofoti va Murakami haqida. 2016. <https://kh-davron.uz/kutubxona/>
11. Otaboyev. A. “Shamol qo‘shig‘ini tingla” rus tilidan tarjima. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2008, 9-son.
12. Truman Capote. Shut a final door. Short story. 1947. <https://www.theatlantic.com>
13. <https://www.thejohnfox.com> haruki\_murakami Hear the Wind Sing by Haruki Murakami. 2006.

